

2025-yil 25-iyul

Xitoy kimyo sanoatidagi sanoat robotlari soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi



2023-yil yakuni bo'yicha Xitoyning kimyo sanoati korxonalarida 66,1 mingta sanoat roboti ishlagan. Bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi o'rinda AQSh (29,8 mingta), uchinchi o'rinda esa Germaniya (22,9 mingta) joylashgan.

Xitoyning yetakchi o'rinni egallashiga davlatning bu sohaga katta e'tibor qaratayotgani sabab bo'lmoqda. Xususan, kimyo sanoati korxonalari robototexnika rivojlanishi bo'yicha rejada asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

E'tiborlisi shundaki, yetakchi 15 davlatdan 10 tasi —Yevropa Ittifoqi a'zolari va Buyuk Britaniya hisoblanadi. Ammo Fransiya, Germaniya, Avstriya va Ispaniya kabi mamlakatlarda yangi robotlar o'rnatilishi sur'ati pasaymoqda. Bu holat ichki talabning kamayishi, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va elektr energiyasi narxining yuqoriligi bilan bog'liq.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xitoy-kimyosanoatidagi-sanoat-robotlari-soni-bo-yicha-dunyo>